BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....	688
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI.....	693
Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li	
MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI.....	699
Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI.....	702
Kazakbayev S.B.	
BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	705
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	709
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	718
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	724
Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI.....	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNI	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	



UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI

Nigmatov Akbarjon Anvarovich

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
“Uy-joyning yagona hayotiy sikli” loyiha ofisi — uy-joy sotib olishning
ishonchli va samarali mexanizmlarini yaratish,
ulush kiritishda taraflarning huquqlarini himoya
qilishni ta'minlash bo'yicha bosh mutaxassis

Annotatsiya. Mazkur maqolada uy-joy qurilishi sohasida ulushli ishtirok etuvchi fuqarolarning pul mablag'larini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida eskrou mexanizmini joriy etishning dolzarbligi va istiqbollari tahlil qilinadi. O'zbekistonda qurilish hajmlarining jadal o'sishi sharoitida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va investitsion jarayonlarning shaffofligini oshirish zarurati asoslanadi. Xorijiy tajriba tahlili eskrou mexanizmidan foydalanish ulushdorlar mablag'larini ishonchli himoya qilish, loyihalarni moliyalashtirish intizomini kuchaytirish hamda risklarni kamaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu mexanizmni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan institutsional va huquqiy masalalar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan islohot yo'nalishlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: eskrou mexanizmi, ulushli qurilish, uy-joy bozori, ulushdorlar, moliyaviy himoya, moliyaviy shaffoflik.

Abstract. This article examines the relevance and prospects of introducing the escrow mechanism in the housing construction sector to strengthen the protection of funds contributed by participants in shared construction projects. Against the backdrop of rapid growth in construction volumes in Uzbekistan, the study substantiates the need to improve contractual relations, enhance financial discipline, and increase the transparency of investment processes. An analysis of international experience demonstrates that the use of the escrow mechanism ensures reliable protection of contributors' funds, improves project financing discipline, and mitigates risks. The paper also discusses institutional and legal aspects of implementation and outlines reform directions aimed at addressing potential challenges.

Key words: escrow mechanism, shared construction, housing market, contributors, financial protection, financial transparency.

Аннотация. В статье анализируются актуальность и перспективы внедрения механизма эскроу в сфере жилищного строительства в целях усиления защиты денежных средств граждан — участников долевого строительства. В условиях динамичного роста объемов строительства в Узбекистане обосновывается необходимость совершенствования договорных отношений, укрепления финансовой дисциплины и повышения прозрачности инвестиционных процессов. Анализ зарубежного опыта показывает, что применение механизма эскроу способствует надежной защите средств дольщиков, повышению дисциплины финансирования проектов и снижению рисков. Также рассматриваются институциональные и правовые аспекты внедрения данного механизма и направления реформ по их эффективному решению.

Ключевые слова: механизм эскроу, долевое строительство, рынок жилья, дольщики, финансовая защита, финансовая прозрачность.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishi sohasi iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Aholining uy-joyga bo'lgan talabining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi hamda davlat tomonidan ipoteka bozorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida qurilish bozorida investitsion faollik sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, ulushli qurilish



mexanizmi orqali moliyalashtirilayotgan obyektlar sonining ko'payishi fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya ishtirokchisi sifatidagi rolini yanada kuchaytirdi.

Mazkur jarayonlar doirasida institutsional muhitni takomillashtirish, developerlar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, risk-menejment tizimini rivojlantirish hamda shartnomaviy intizomni mustahkamlash muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Amaliyotda uchraydigan ayrim holatlar, jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati, loyihalarning uzluksizligini ta'minlash masalalari va aktivlar sifatini yaxshilash ehtiyoji qurilish bozorida barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi. Bu, o'z navbatida, aholining ishonchini mustahkamlash va moliyaviy xavfsizlikni kuchaytirish uchun institutsional islohotlarning ahamiyatini oshiradi.

Xalqaro amaliyotda ulushdorlar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy tavakkalchiliklarni minimallashtirish maqsadida eskrou hisobvaraqlari instituti keng qo'llaniladi. Ushbu mexanizm developer va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblarni bank orqali amalga oshirish, mablag'larni maqsadli yo'naltirish hamda qurilishning belgilangan bosqichlari bajarilgandan so'nggina ularni ajratish orqali moliyaviy intizomni ta'minlaydi. Natijada qurilish loyihalarining shaffofligi oshadi, investitsion muhit barqarorlashadi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ishonch mustahkamlanadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekistonda uy-joy qurilishi sohasida eskrou mexanizmlarini joriy etishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini tadqiq etish, uning amaliy samaradorligini baholash hamda mavjud normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eskrou mexanizmi dastlab XIX asrda anglo-sakson huquq tizimida ko'chmas mulk bitimlarida tomonlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni xavfsiz amalga oshirish maqsadida qo'llanilgan. Ushbu mexanizm pul mablag'larini uchinchi, neytral tomon orqali shartli asosda saqlash hamda belgilangan shartlar bajarilgandan so'ng ularni o'tkazishni nazarda tutgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab eskrou mexanizmlari AQSh, Kanada va Yevropa davlatlarida uy-joy qurilishi hamda ipoteka munosabatlarida keng qo'llanila boshlandi. Ayniqsa, ulushli qurilish sohasida fuqarolar mablag'larini himoya qilish zarurati ushbu mexanizmning rivojlanishiga muhim turtki bo'ldi. Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda eskrou hisobvaraqlari uy-joy bozorida xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qilayotgan samarali moliyaviy vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda eskrou shartnomasining, ayniqsa, murakkab va ko'p bosqichli bitimlarda samarali huquqiy instrument ekani qayd etiladi. Ushbu mexanizm hisobvaraq bo'yicha tushumlar va xarajatlar ustidan aniq nazoratni ta'minlashi, mablag'lardan maqsadli foydalanishni kafolatlashi hamda taraflar o'rtasidagi ishonch darajasini oshirishi bilan ahamiyatlidir [1]. Shu bois, AQSh va Buyuk Britaniya amaliyotida eskrou instituti qo'shib olish va birlashish (M&A) bitimlarida, korporativ qayta tashkil etish jarayonlarida hamda yirik investitsiya shartnomalarida keng qo'llaniladi [2].

Anglo-amerika huquq tizimida eskrou instituti majburiyatlarni ta'minlashning o'ziga xos huquqiy konstruksiyasi sifatida shakllangan. Unga ko'ra, deponent o'z majburiyatining bajarilishini ta'minlash maqsadida muayyan mol-mulkni yoki pul mablag'ini eskrou-agentga deponentlash (saqlashga topshirish) orqali vaqtincha ajratadi. Mazkur mol-mulk shartnomada nazarda tutilgan muayyan shart bajarilganda yoki belgilangan yuridik fakt yuz berganda benefitsiarga o'tkaziladi [3].

Bunda mol-mulk maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan eskrou bank hisobvarag'ida saqlanadi, ya'ni ushbu mablag'lar deponentning boshqa aktivlaridan ajratilgan holda hisobga olinadi va ulardan erkin foydalanish cheklanadi [4]. Mazkur huquqiy rejim taraflar manfaatlarini himoya qilish, risklarni muvozanatli taqsimlash hamda shartnomaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, eskrou mexanizmi nafaqat huquqiy ta'minlash vositasi, balki investitsion xavflarni kamaytirishga qaratilgan samarali moliyaviy-institutsional instrument sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariy qarashlar milliy qurilish bozori sharoitida mazkur mexanizmni joriy etish imkoniyatlarini baholash uchun ishonchli metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eskrou mexanizmi huquqiy va moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim instrument hisoblanadi. Xususan, Burkova eskrou hisobvaraqlarining huquqiy tabiatini va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish istiqbollarini asoslab beradi, Konevina esa eskrou shartnomasining amaliy qo'llanilishi va bitimlar xavfsizligini ta'minlashdagi rolini yoritadi. Rudenko tadqiqotlarida esa eskrou hisobidagi mablag'lardan foydalanishni cheklash orqali tomonlar manfaatlarini muvozanatlashtirish mexanizmi ochib beriladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda uy-joy qurilishi sohasida ulushli ishtirok etuvchi fuqarolarning pul mablag'larini himoya qilish masalalari kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida huquqiy-tahliliy, qiyosiy-huquqiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlar qiyosiy tahlil qilindi, uy-joy bozorida qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarning samaradorligi baholandi hamda amaliyotda mavjud tendensiyalar statistik ma'lumotlar asosida umumlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlar sharhi, tizimli tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, eskrou mexanizmining huquqiy-iqtisodiy mohiyati ochib berildi hamda uni milliy amaliyotga joriy etish istiqbollari asoslab berildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy bozori aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda qurilish sohasi jadal rivojlanib, qurilish ishlari hajmi 2012-yilda 11,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 11 oyi yakuniga ko'ra 205,7 trln so'mdan oshdi, ya'ni 17,5 baravar o'sish qayd etildi. Mazkur dinamik o'sish uy-joy bozorida investitsion faollikning sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, qurilish hajmlarining o'sishi ulushli qurilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. Natijada uy-joy qurilishiga mablag' kiritayotgan fuqarolar manfaatlarini tizimli himoya qilish masalasi dolzarblashmoqda. Shu bois ulushdorlar mablag'larini himoya qilishga qaratilgan zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etish muhim amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan amaliy tahlillar uy-joy qurilishi sohasida ulushdorlarning pul mablag'larini himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha institutsional imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 129 ta ulushli qurilish shartnomasining tahlili natijalariga ko'ra, shartnomalarning aksariyatida ulushdorlar manfaatlarini ta'minlashga doir ayrim muhim shartlarni yanada aniqroq belgilash zarurati aniqlangan. Jumladan, shartnomalarning 84 foizida qurilish obyektining kafolat muddati ko'rsatilmagan bo'lib, bu holat sifat ko'rsatkichlari bo'yicha talablarni huquqiy jihatdan mustahkamlash ehtiyojini anglatadi. Shuningdek, shartnomalarning 80 foizida qayta hisob-kitob masalalarida developerlarga ustuvor huquqlar berilgan bo'lib, bu tomonlar o'rtasidagi huquqiy muvozanatni yanada uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan shartnomalarning 58 foizida obyekt foydalanishga topshirilgandan so'ng umumiy maydon tafovutlari aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitob qilish mexanizmi nazarda tutilmagan.

Bundan tashqari, shartnomalarning 51 foizida qurilish obyektlarini topshirish muddatlari kechiktirilgan holatlarda developerlarning javobgarligi aniq belgilab qo'yilmagan, 39 foizida esa obyektning foydalanishga topshirishning aniq muddatlari ko'rsatilmagan. Ushbu holatlar uy-joy qurilishi sohasida huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi hamda tizimli islohotlar uchun amaliy asos yaratadi.

Shuningdek, 2024-yilda ko'p kvartirali uylar qurilishi bilan bog'liq 1 700 ga yaqin murojaat kelib tushgan bo'lib, ular natijasida qariyb 20 mlrd so'm mablag' iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilingan. Bu ko'rsatkichlar ulushli qurilishda manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish orqali bozor ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlash imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Eskrou mexanizmini uy-joy qurilishi sohasiga joriy etish ulushli ishtirok etuvchi fuqarolarning pul mablag'larini himoya qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm ulushdorlar tomonidan kiritilgan mablag'larning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlab, ularning qurilish ishlari bilan bog'liq ehtiyojlar uchun foydalanilishini institutsional jihatdan kafolatlaydi. Shu bilan birga, eskrou hisobvaraqlari orqali mablag'lar harakatining shartli tartibda boshqarilishi qurilish jarayoni ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytiradi. Bu esa developerlarning moliyaviy intizomini oshirish, shartnomaviy majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarishga rag'batlantirish imkonini beradi. Natijada uy-joy bozorida moliyaviy shaffoflik ortadi, ulushli qurilish ishtirokchilari o'rtasida ishonch mustahkamlanadi hamda muammoli qurilish obyektlarining yuzaga kelish ehtimoli kamayadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi eskrou mexanizmlarining ulushdorlar mablag'larini himoya qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida ulushli qurilish ishtirokchilarining mablag'lari majburiy tarzda vakolatli banklardagi eskrou hisobvaraqlariga joylashtiriladi va developer ushbu mablag'lardan faqat obyekt foydalanishga topshirilgandan so'ng foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada mablag'lar qurilish ishlarining bajarilish bosqichlariga mos ravishda ajratiladi. Birlashgan Arab Amirliklarida qurilish loyihalari maxsus elektron reyestrarda ro'yxatdan o'tkazilib, eskrou hisobvaraqlari bo'yicha ma'lumotlar ochiq e'lon qilinadi. Kanada va Niderlandiyada esa eskrou mexanizmlari kafolat fondlari bilan uyg'un holda qo'llanilib, developer bankrot bo'lgan taqdirda ham ulushdorlar manfaatlarini moliyaviy jihatdan ishonchli himoalanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Eskrou mexanizmlarini joriy etish jarayonida ayrim institutsional va tashkiliy masalalar yuzaga kelishi mumkin. Xususan, huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi, bank tizimining loyihaviy moliyalashtirish va qurilish monitoringiga moslashuvini jadallashtirish zarurati, developerlar uchun bank kreditlari shartlarining qayta ko'rib chiqilishi ehtiyoji, amaldagi shartnomalarni eskrou mexanizmiga moslashtirish hamda axborot platformalarini rivojlantirish masalalari dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yo'nalishlarda izchil chora-tadbirlar ko'rish mexanizmning barqaror joriy etilishini ta'minlaydi.

Eskrou mexanizmini uy-joy qurilishi sohasida samarali joriy etish va undan barqaror foydalanish huquqiy, tashkiliy hamda axborot yo'nalishlarida kompleks islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Avvalo, mazkur mexanizmning samarali ishlashi uchun mustahkam huquqiy bazani shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda qonun darajasida ulushli qurilish munosabatlarida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning — ulushdorlar, developerlar va tijorat banklarining — huquq va majburiyatlari aniq hamda bir ma'noli tarzda belgilanishi lozim. Bu yondashuv huquqiy noaniqliklarni kamaytirish va shartnomaviy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, eskrou mexanizmini amalga oshirishga doir tartib-taomillarni qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar orqali batafsil tartibga solish zarur. Xususan, eskrou hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi, mablag'larni bosqichma-bosqich o'tkazish shartlari, banklarning nazorat funksiyalari hamda tomonlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob mexanizmlari tegishli nizomlar va yo'riqnomalarda aniq belgilanishi lozim. Bu amaliy bosqichda mexanizmning izchil va bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, ulushli qurilish sohasidagi munosabatlarni imkon qadar raqamlashtirish va inson omilining ta'sirini qisqartirish maqsadida yagona elektron platforma, ya'ni kompleks raqamli ekotizimni yaratish maqsadga muvofiq. Mazkur platforma orqali qurilish obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, shartnomalarni rasmiylashtirish, eskrou hisobvaraqlariga mablag'larni joylashtirish hamda qurilish jarayonini monitoring qilish imkoniyatlari ta'minlansa, moliyaviy shaffoflik va nazorat darajasi sezilarli darajada oshadi.

To'rtinchidan, eskrou mexanizmini joriy etish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda o'tish davrida keng qamrovli axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasida yangi tizimning mohiyati, afzalliklari va amal qilish tartibi bo'yicha izchil tushuntirishlar olib borilishi ularning yangi mexanizmga moslashuvini tezlashtiradi. Bu esa islohotlarning ijtimoiy qabul qilinishi va amaliy samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, eskrou mexanizmini uy-joy qurilishi sohasiga joriy etish ulushli ishtirok etuvchi fuqarolarning pul mablag'larini ishonchli himoya qilishga qaratilgan istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Mazkur mexanizmni bosqichma-bosqich tatbiq etish qurilish sohasida moliyaviy shaffoflikni oshirish, muammoli obyektlar ulushini qisqartirish hamda aholining uy-joy bozoriga bo'lgan ishonchini mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Буркова А. Ю. Эскроу-счета: перспективы в российском законодательстве // Законы России: опыт, анализ, практика. — 2009. — № 1. — С. 56.
2. Коневина Ю. Л. Указ. соч. — С. 146.
3. Коневина Ю. Л. Применение договора эскроу // Экономика. Налоги. Право. — 2013. — № 5. — С. 145.
4. Руденко Е. Ю. К вопросу об ограничении права распоряжаться денежными средствами, находящимися на счёте эскроу // Власть закона. — 2015. — № 2 (22). — С. 125–130.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
